

PRESS-RELIZ

“Besh million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihasi doirasidagi “Milliy tanlov” ning “Eng faol ishtirokchi” nominatsiyasi g'oliblari taqdirlandi

Xabaringiz bor, yaqinda poytaxtimiz Toshkent shahrida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Besh million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihasi doirasida “Milliy tanlov” o'tkazilgan edi. Mazkur tanlovda Samarqand viloyatidan ishtirok etgan 19 nafar o'quvchi-yoshlar “Eng faol ishtirokchi” nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Bugun Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasida mazkur tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Rustam Yo'ldoshev so'zga chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, bu yo'nalishda yuqori natijalarga erishayotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidladi.

Taqdirlash marosimida g'oliblarga quyidagi sovg'alar topshirildi:

11 nafar o'quvchiga noutbuk;

1 nafar o'quvchiga planshet;

2 nafar o'quvchiga aqlli soat;

5 nafar o'quvchiga onlayn ta'lim platformalari uchun litsenziya;

2 nafar o'qituvchiga (1 ta noutbuk va 1 ta planshet) esdalik sovg'alari topshirildi.

Marosimda boshqarma boshlig'i vazifasini bajaruvchi Rustam Yo'ldoshev Samarqand viloyati hokimining raqamlashtirish bo'yicha maslahatchisi Ansor

Anvarov hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Dilmurod Xo'jamberdiyevlar g'oliblarga sertifikat va esdalik sovg'alarini tantanali ravishda topshirdilar.

Tadbir davomida yoshlarni zamonaviy texnologiyalar, raqamli bilim va sun'iy intellekt sohasiga keng jalb etish, ularning innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekani alohida qayd etildi.

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi axborot xizmati